



НИКОYALAR AYTISH USLUBI – BU BIRDAMLIK HISSINI UYG'OTISHGA YORDAM BERUVCHI IJTIMOIY INNOVATSIYASIDIR

M.I.Baqoeva

*Buxoro VPYMO 'MM "Pedagogika va psixologiya,
talm texnologiyalari" kafedrasi katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada taraqqiyotning tamal toshi bo'lgan ta'limgartarbiya, global yangiliklar davrida zaruriy "hayotiy ko'nikmalar", rivojlanishning asosiy jihatlari, fin tajribasi asosida ta'limgartarbiyaning samarali usullarini tashkil qilish haqidagi fikrlar yoritilgan.

Аннотация: В данной статье раскрывается суть образования, являющееся краеугольным камнем развития, выделены основные аспекты развития, разъяснены необходимые «жизненные навыки» в эпоху глобальных инноваций, а также указаны эффективные методы образования и обучения на основе финского опыта.

Abstract: This article reveals the essence of education, which is the cornerstone of development, highlights the main aspects of development, explains the necessary "life skills" in the era of global innovation, and also indicates effective methods of education and training based on Finnish experience.

Kalit so'zlar: hikoya aytish, zamonaviy insonlarning kompetensiyalari, ilm-fan, ta'limgartarbiya.

Ключевые слова: повествование, компетенции современного человека, наука, образование и воспитание.

Key words: storytelling, modern human competence, science, education and education.

Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'limgartarbiya, degan edi Shavkat Mirziyoev. Shuning uchun bu sohaning barcha bosqichlari tubdan isloh qilinib, kompleks rivojlantirilmoqda.

Taraqqiyot tufayli olamda mukammallashish, yuksalish ro'y beradi, u vujudga kelish, murakkablashish, ulg'ayish, yangilanish, tiklanish, tizim yasalish jarayonlari tarzida amalga oshadi.

Ta'limgartarbiyaning O'zbekiston davlatining siyosati ta'limgartarbiyaning tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining uzluksiz ta'limgartarbiyaning barcha turlarida amalga oshadi.



oshirilishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu konsepsiyaning dolzarbligi shu bilan izohlanadiki, raqamli iqtisodiyotni tez sur’atlarda o‘sib borishi bilan kadrlarning doimiy o‘z ustida ishlab borishga zaruriyati hamda nafaqat tor doiradagi mutaxassislikka yo‘naltirilgan ko‘nikmalar majmuasiga ega kadrlar, balki keng ko‘lamli universal kompetensiyalarga ega mutaxassislarga ehtiyojning mavjudligidadir.

Demak, XXI asrda yashayotgan zamonaviy insonlarning kompetensiyalari transformasiyalashib borayotgan jamiyat va davlat iqtisodiyoti talablariga javob berishi lozim. Aynan ularning sharofati bilan insonlar murakkab bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohalarda yuzaga keladigan ehtiyojlarni tezda qondira oluvchi moslashuvchan hamjamiyatlar vujudga keladi. Shu bilan bir qatorda “kelajak kompetensiyalari” insonlar tomonidan ommaviy qo‘llanilsa, jamiyat va iqtisodiyot transformatsiyasi ham tezroq, ham ishonchliroq asosga quriladi.

Buning uchun, kelajak mutaxassis qanday bo‘lishi kerak? Avvalambor, har bir mutaxassis:

- Onlayn ishslashni bilishi;
- Katta hajmli ma’lumot bilan ishslashni bilishi;
- IT texnologiyalarni bilishi;
- Doim yangi kasbni o’rganishga tayyor bo‘lishi;
- Har qanday vaziyatda yangi g’oyalar generatori bo‘lishi;
- Bir necha hayotiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi;
- Mobil bo‘lishi zarur.

Buning uchun maktab ta’limini tez sur’atlarda rivojlanib borayotgan zamon talablariga moslashtirish zarurdir, shu bois yangi avlod darsliklari 4K-modeli, ya’ni tanqidiy fikrlash, jamoaviy ishslash, ijodkorlik va muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga moslashtirilgan. Bu o‘quvchilarni fanga yanada ko‘proq qiziqtirish hamda bugungi o’smirlar hayotida muhim bo‘lgan gadgetlarni foydali vositaga aylantirishni maqsad qiladi.

Bu ko‘nikmalar o‘quvchilar uchun juda muhim bo‘lib, ularga muammolarni hal etish, birgalikda ishslash va yechim topish imkoniyatini beradi.

Kommunikatsiya. Bolalarga kommunikatsiya, ya’ni muloqot turli shaklda bo‘lishi mumkinligini o‘rgatish muhim hisoblanadi. Muloqot davomida faqatgina og‘zaki suhbat emas, balki qo‘l imo-ishoralari va yuz ifodasi kabi belgilar ham ahamiyatga ega. Hozirda raqamli texnologiyalar asrida yashayotgan ekanmiz, bolalarga raqamli makonga mas’uliyat bilan yondashishni o‘rgatish zamon talabidir.



Kollaboratsiya. Hayotda muvaffaqiyatga erishish insonlardan bиргаликда ishlashni talab qiladi. Bolalar ham kichik yoshidan o‘z muammolarini hal qilishni o‘rganishi kerak. Kichik yoshdagi bolalar boshqalarning nuqtai nazarini tushunishi biroz murakkablikni yuzaga keltiradi. Bu ko‘nikmalarni rivojlantirish ko‘p vaqt va mahorat talab etadi.

Kritika, ya’ni tanqidiy fikrlashning bir qismi bu muammolarni hal qilish, aqlni charxlaydigan jumboqlarni yechish va "nima uchun?" deb savol berishdan iborat. Birgina tugmani bosish orqali ma’lumot olish mumkin bo‘lgan bugungi kunda ma’lumotlarning ishonchli yoki ishonchli emasligini aniqlay olish zarur. O‘quvchilarda san’atga qiziqish bo‘lsa, ko‘proq ijodkorlik haqida o‘ylaydi. Ijodkorlik noodatiy fikrlashni anglatadi va bu barcha sohada uchraydi. Yangi narsalarni sinab ko‘rishga undash orqali bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish mumkin.

Oxirgi yillarda ta’limni rivojlanish uchun mamlakatlar orasida musobaqaning yangi turi paydo bo‘ldi: o‘quvchilarning o‘zlashtirishini baholash. Xususan, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD) ushbu masalada qiziqish bildirdi, hamda o‘qish va imlo, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha o‘quvchilarning bilim, qobiliyat va ko‘nikmalarini taqqoslashni tashkillashtirdi. Ayonki, Fin o‘quvchilarini barcha PISA tadqiqotlarida yaxshi natijalar ko‘rsatdilar. Fin o‘quvchilarining ayniqsa o‘qish va imlodagi qobiliyatları xalqaro miqyosdagi e’tiborga sazovor bo‘ldi.

Bizning mamlakatimiz olim va o‘qituvchilari mahalliy maktablar va maktab ta’limi tizimi bilan tanishish uchun Finlyandiyaga bordilar. Bundan tashqari, fin mutaxassislari ham Finlyandiyaning ta’lim siyosati bo‘yicha ma’ruzalar o‘qish uchun mamlakatimizga taklif qilindilar.

Fin o‘quvchilari o‘zlashtirishining yaxshi ko‘rsatkichlari bir qator omillarning faoliyati natijasidir: ta’lim tizimining tuzilishi (sinf 9 yil davomida bиргаликда va bir xil tarkibda o‘qiydi), qaror qabul qilishning taqsimlangan vakolatlari va maktablarning ta’lim-tarbiya berishdagi muxtorligi, ta’lim jarayoni o‘quvchiga yo‘naltirilgan, o‘qishdagi qiyinchiliklarga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun yaxshi ishlab chiqilgan maxsus ta’lim tizimi, o‘quvchilarga har tomonlama ko‘maklashish tizimi (ta’lim masalalari bo‘yicha maslahatlar berish, maktab psixologlari va ijtimoiy xodimlar, maktablardagi sog‘likni saqlash), malakali va o‘z ishiga sodiq o‘qituvchilar tarkibi, bepul ta’lim.

O‘qishdagi yutuqlarni faqatgina maktabga aloqador hollar bilan izohlab bo‘lmaydi, chunki maktabni o‘rab turgan atrof-muhitni ham e’tiborga olish kerak.



Fin o‘quvchilari orasidagi o‘qish va imloning yuqori darajasiga ta’sir qiluvchi eng muhim omillar sifatida ikkitasini eslab o‘tish joiz: o‘qishni rag‘batlantirish madaniyati va azalgi o‘qish odati.

Finnarning kitob o‘qishni yaxshi ko‘rishlari to‘g‘risida so‘z borar ekan, bunda tovuq va tuxum dilemmasini ko‘rish mumkin: kitoblar borligida ularga talab ham paydo bo‘ladi, xalq kitob so‘ragan vaqtida esa, demokratik jamiyatda doimo taklif bo‘ladi. Quyida Finlyandiya ta’limining rivojlanishida muhim rol’ o‘ynagan “Hikoyalar aytish” uslubi haqida to’xtalib o’tmoqchimiz.

Hikoyalar aytish uslubi – bu birdamlik hissini uyg‘otishga yordam beruvchi muhim fin ijtimoiy innovatsiyasidir. U faqatgina bir necha qo‘l ostidagi vositalarni talab qiladi. Lekin, albattaki yoningizda ham katta yoshdagilar, ham bolalarga nisbatan bo‘lgan to‘g‘ri munosabat va har bir insonning yoshi, jinsi, madaniyati, ma’lumoti yoki qobiliyatlaridagi cheklanishlaridan qat’iy nazar, boshqalarga aytib berish uchun biron-bir shaxsiy va muhim bo‘lgan voqeasining mavjudligiga ishonch bo‘lishi kerak.

«Hikoyalar aytish» uslubi 1980 yillarda bolalar psixologlari faoliyati doirasida o‘ylab topilgan. “Bolalarning hikoyalarini tinglar va yozib olar ekanman, men bolalarni holat rivojlanishini har qanday taxmin qilish yoki yo‘llovchi savollarsiz ham tinglash mumkinligini aniqladim”-deb yozadi, Ijtimoiy fanlar doktori, psixolog Monika Riixelya. Ushbu uslub og‘zaki hikoyalarning boshqa usullaridan farq qiluvchi to‘rtta bosqichdan iborat:

1. Hikoyani e’tirozlarsiz tinglash.
2. Hikoyani yozib olish.
3. Uni o‘qish.
4. Hikoyachi xohishiga ko‘ra ehtimoliy xatoliklarni tuzatish.

Hikoyani yozib oluvchiga faqatgina qog‘oz va qalam kerak. Keyin u hikoyachiga o‘zining nimani eshitishni xohlashini tushuntiradi: «O‘zing xohlagan hikoyangni aytib ber. Sen uni qanday aytib bersang, men uni so‘zma-so‘z yozib olaman. Ertak tayyor bo‘lganda, men uni senga o‘qib beraman va agarda sen xohlasang unga o‘zgartirishlar kiritishing mumkin».

«Hikoyalar aytish» uslubidan foydalanishda suhbatning mavzusi va borishi oldindan kelishib olinmaydi. Hikoya baholanmaydi. Nima haqida va qanday so‘zlab berishni hikoyachining o‘zi hal qiladi. Shuningdek, nima haqida gapirishni istamasligini ham o‘zi hal qiladi.

«Hikoyalar aytish» uslubi, bu hikoyani yozib olayotgan tinglovchining hikoyachining ichki suhbatida ishtirot etadigan tomonlarning o‘zaro munosabatidir.



Ushbu uslub har bir kishida tanish va barchaga ma'lum bo'lgan ma'lumotlardan tashqari, boshqa yana hech kimda bo'lmagan o'z tajribasi va atrofdagi olam haqidagi yig'ilgan ma'lumoti ham mavjuddir. Hikoyani so'zlab beruvchiga baho berilmaydigan vaqtarda, u shuningdek o'z fikr va tajribalarini ham bayon etadi.

Tadqiqotlar «Hikoyalar aytish» uslubi yordamida odamlarning o'zaro munosabat jarayonlari ko'proq demokratik tarzda bo'lishini ko'rsatdi. Osoyishta va kamtar kishilar o'zlarini dadil tarzda ifodalashga o'rghanadilar, sergaplar esa tinglashni o'rghanadilar. Tadqiqotda ishtirok etuvchilar bir-birlarining yangi qirralarini kashf etadilar. Har bir hikoya qilish boshqalaridan farq qiladi, har bir hikoyachining o'z lug'ati bor, hatto kichik bolalar ham o'z so'zlari va hikoya qilish usullaridan foydalanadilar.

Hikoya qilish uslubi o'qish va yozishni o'rghanishga ko'maklashadi, uning tinglanayotgan va tushunilayotgan ekanligiga ishonch hosil qilishga yordam beradi. Uslubdan ham juftlikda, ham guruhda foydalanish mumkin. Hikoyalar ortidan hikoyalar so'zlab berish mumkin. Shuningdek, guruh ichida bitta voqeani ham o'ylab topish ham mumkin. Hikoyani grafik yoki musiqiy shaklda so'zlab berish mumkin, lekin barcha to'rt bosqichning mavjud bo'lishi va hikoyani tinglash shartlarini qoniqtirishi eng asosiysidir.

Ushbu uslub turli mamlakat vakillariga boshqa madaniyat va an'analarni yaxshiroq o'rghanishga ko'maklashadi. Yozishmalar bo'yicha do'stlarning hamkorligi va o'z ertaklarini finlar, Shimoliy Yevropadagi boshqa mamlakatlar, Estoniya, Palestina, Janubiy Afrika, Namibiya, Zambiya, Keniya va Uganda aholisi o'rtasida so'zlab berishlari bunga misol tariqasidadir.

«Hikoyalar aytish» uslubi turli yosh guruhlariga moslashtirilgan va 30 yildan ko'proq vaqt davomida odamlarning uylari, bolalar maslahatxonasi, muktab, kutubxona, kasalxona, muruvvat uylari va san'at ko'rgazmalarida; bolalar o'rtasida, ishchi majlislari, ta'lim olish va terapiya, xalqaro saviya va birdamlik hissini shakllantirishda foydalaniladi. Uslubdan foydalanish holatlaridan qat'iy nazar, bildirilgan fikrlar doimo ijobjiy bo'lgan.

Bu usulni misol keltirishdan maqsad, bizda ham asosiy kuchni darsda masal, zarbulmasal, rivoyat va hikoyalar aytib bolalarning ruhiyati, dynyoqarashi, erkin fikrlashini rivojlantirishga qaratish kerak. Bu usul yuqorida ko'rsatib o'tilgan 4K-modelini hayotga tadbiq etish uchun qulay va samarali usul bo'ladi deb o'layman.

Bu usulga bolalarda ko'nikma hosil qilish uchun, dastlab, oqituvchi hikoyani yarmini aytib qolgan qismini o'quvchi to'qib davom ettirishini topshiriq qilib beradi, keyinchalik esa butun hikoya to'qish vazifasi topshiriladi. Masalan:



Podshohning kovushi

Rivoyat qilishlaricha, bir podshoh katta davlatni boshqarar edi. Bir kuni u shaharda piyoda sayr qilishni istadi va uzoq masofani yayov bosib o'tdi. Saroya qaytish arafasida oyog'i og'rib bir joyda to'xtab dam olishga qaror qildi. Qarasa, ko'p yurganidan oyog'i shishib ketibdi. Shu zahoti shaharning barcha yo'laklariga qalin charmdan tikilgan gilamchalar to'shashga amr qilmoqchi bo'ldi. Dono vaziri podshohning maqsadini tushunib, qaror chiqarishidan oldin oqilona maslahat berdi.

...

Topshiriq: rivoyatni davom ettiring, mabodo siz vazir o'rnila bo'lsangiz qanday maslahat bergen bo'lardingiz?

Maktabda ko'nikmaga ega bo'lgan bolalar bir kun ulg'ayib muloqotga kirishuvchan, voqealarning mazmun-mohiyatini anglaydigan, tahlil qila oladigan va hamkorlikda ishlay olish ko'nikmalariga ega kadrlar bo'lib yetishishiga shubha yo'q. Lekin, bizning innovatsiyalarimizning kelajakda ham yashashi va rivojlanishi uchun yangi va yangi rag'batlantirish dastaklari kerak bo'ladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Finlyandianing 100 ta ijtimoiy innovatsiyasi. Ilkka Taypale tahriri, Monika Riixelya maqolasidan foydalanildi, Ijtimoiy fanlar doktori, psixolog
2. <https://www.yuz.uz/news/4k--bolajak-talimni-belgilaydi>
3. <https://fayllar.org/21-asr-konikma-va-malakalari-ular-nimani-taqozo-etadi-konikma.html>